2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

O‘ZBEKISTONDA SABZAVOT EKINLARI URUG‘CHILIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH
Toshkent davlat agrar universiteti
“Agroiqtisodiyot” kafedrasi asistenti
E-mail: abdulhakim.uz90@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7422-2396

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari, urug‘lik materiallaridan samarali foydalanish, urug‘lik sifatini iqtisodiy baholash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda urug‘chilik tizimida samarali boshqaruvni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Sabzavot urug‘idan foydalanishning allokativ samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash uslubi, urug‘lik sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan tabaqali rag‘batlantirish mexanizmi, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish agentligini tashkil etish va iqlim o‘zgarishi sharoitida sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini prognozlashga doir ilmiy-amaliy natijalar yoritilgan. Tadqiqot yakunida sabzavot urug‘chiligining iqtisodiy samaradorligini oshirish, urug‘lik resurslaridan oqilona foydalanish va milliy urug‘chilik tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: sabzavot ekinlari, urug‘chilik, urug‘lik sifati, allokativ samaradorlik, urug‘ sarfi, urug‘ unuvchanligi, urug‘lik tozaligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, koinvestitsiya, sug‘urta subsidiyasi, urug‘chilikni boshqarish, prognozlash, iqlim o‘zgarishi.

Аннотация. В статье исследуются организационно-экономические направления развития семеноводства овощных культур в Узбекистане, эффективное использование семенного материала, экономическая оценка качества семян, совершенствование механизмов государственной поддержки и формирование эффективной системы управления семеноводством. Освещены научно-практические результаты, связанные с разработкой методики определения коэффициента аллокативной эффективности использования семян овощных культур, механизмом дифференцированного стимулирования на основе показателей качества семян, созданием Агентства по развитию семеноводства сельскохозяйственных культур, а также прогнозированием объёмов производства овощной продукции в условиях изменения климата. По результатам исследования разработаны предложения по повышению экономической эффективности семеноводства овощных культур, рациональному использованию семенных ресурсов и укреплению конкурентоспособности национальной системы семеноводства.
Ключевые слова: овощные культуры, семеноводство, качество семян, аллокативная эффективность, норма высева семян, всхожесть семян, чистота семян, государственная поддержка, соинвестирование, субсидирование страхования, управление семеноводством, прогнозирование, изменение климата.

Abstract. The article examines the organizational and economic directions for developing vegetable seed production in Uzbekistan, the efficient use of seed materials, the economic assessment of seed quality, the improvement of state support mechanisms, and the establishment of effective management within the seed production system. It presents scientific and practical findings on a methodology for determining the allocative efficiency coefficient of vegetable seed use, a tiered incentive mechanism based on seed quality indicators, the establishment of an Agency for the Development of Agricultural Crop Seed Production, and forecasting vegetable production volumes under climate change conditions. Based on the research findings, recommendations have been developed to improve the economic efficiency of vegetable seed production, ensure the rational use of seed resources, and strengthen the competitiveness of the national seed production system.
Keywords: vegetable crops, seed production, seed quality, allocative efficiency, seed rate, seed germination, seed purity, state support, co-investment, insurance subsidies, seed production management, forecasting, climate change.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Jahonda aholi sonining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning kuchayishi, iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanish zarurati sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Sabzavot yetishtirish samaradorligi nafaqat ekin maydonlari va agrotexnik tadbirlarga, balki foydalanilayotgan urug‘lik materiallarining sifati, narxi, unuvchanligi va navdorlik xususiyatlariga ham bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston sharoitida sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish mahalliy navlar va duragaylarni yaratish, sifatli urug‘lik bilan ta’minlanganlikni yaxshilash, import urug‘lariga iqtisodiy jihatdan maqbul muqobillarni shakllantirish hamda urug‘lik yetishtirishning moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq.

Bunda urug‘lik materiallarini faqat xarid narxi yoki sarf miqdori bo‘yicha baholash yetarli emas. Chunki urug‘ning unuvchanligi va tozalik darajasidagi farqlar bir xil miqdordagi urug‘dan olinadigan samarali ekish materiallari hajmiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli urug‘ sarfi, uning narxi va sifat ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, urug‘chilikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning manzilliligi, sug‘urta va investitsiya mexanizmlaridan foydalanish, urug‘chilik tashkilotlari o‘rtasidagi vazifalarni muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish hajmini ilmiy asosda prognozlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslash va urug‘likdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Meva-sabzavotchilik tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi, mahsulotlar bozorini takomillashtirish, kooperatsiya va logistika munosabatlarini rivojlantirish masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida turli jihatlardan o‘rganilgan.

U.S.Muhiddinovaning meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishga oid tadqiqotlari tarmoqning bozor munosabatlari va iqtisodiy samaradorligi masalalarini o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

O.G.Dilmurodovning meva-sabzavotchilik mahsulotlarini sotishning logistik zanjirini takomillashtirishga oid tadqiqoti mahsulot harakatining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini o‘rganishga imkon beradi[2]. Sh.M. Murodov esa meva-sabzavot mahsulotlarini sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini

shakllantirish masalalarini tadqiq etgan[3]. S.K. Eshmatovning qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishga oid ishi mahsulot yetishtirishdan tortib uni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan bosqichlarning iqtisodiy bog‘liqligini tahlil qilish uchun muhimdir[4]. M.U.Achilovning meva-sabzavotchilik tarmog‘ini modernizatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy asoslariga bag‘ishlangan tadqiqoti esa tarmoqni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini yoritadi[5].

Ushbu tadqiqotlar urug‘chilikning bozor, kooperatsiya, logistika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qilish uchun umumiy ilmiy asos yaratadi. Biroq meva-sabzavotchilik tarmog‘ining umumiy iqtisodiy rivojlanishi bilan sabzavot urug‘ligidan foydalanish samaradorligi bir xil masala emas. Shu bois urug‘lik sifati, narxi, unuvchanligi, urug‘lik ishlab chiqarish maydonlari va import ta’minotining o‘zaro bog‘liqligini alohida o‘rganish zarur.

Umuman, ko‘rib chiqilgan adabiyotlar urug‘chilikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlik, kooperatsiya, sifatli urug‘likdan foydalanish, bozor infratuzilmasi va institutsional boshqaruvni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada ushbu yondashuvlar O‘zbekiston sharoitida sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarini asoslashga tatbiq etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish, ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash, ko‘p omilli regressiya va trend modellaridan foydalanishga asoslangan yondashuvlar qo‘llanildi.

Urug‘likdan foydalanish samaradorligini baholashda urug‘ sarfi, urug‘ narxi, unuvchanlik va tozalik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik asos qilib olindi. Urug‘chilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda prognozlash yondashuvi yoritildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

1. Sabzavot urug‘idan foydalanish allokativ samaradorligini baholash.

Sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri urug‘lik materiallaridan foydalanish samaradorligini iqtisodiy jihatdan baholash hisoblanadi. Amaliyotda urug‘likni tanlashda uning xarid narxi va sarf me’yoriga katta e’tibor qaratiladi. Biroq mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zi urug‘likdan foydalanishning haqiqiy samaradorligini to‘liq ifodalamaydi.

Urug‘ning unuvchanligi va tozalik darajasi ekish uchun yaroqli urug‘lik miqdorini belgilovchi muhim sifat ko‘rsatkichlaridir. Shu sababli urug‘lik materiallarini iqtisodiy baholashda ularning narxi va sarfini sifat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda hisobga olish zarur.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Mazkur muammoni hal etish maqsadida sabzavot ekinlari urug‘idan foydalanishda urug‘ sarfi va uning narxini urug‘lik materialining unuvchanligi hamda tozalik darajasi bilan bog‘liq holda baholashga asoslangan urug‘dan foydalanish allokativ samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan. Shuningdek, koeffitsiyent qiymatlarini samaradorlik darajalari bo‘yicha tabaqalashtirish shkalasi asoslangan.

Ushbu yondashuv urug‘likning iqtisodiy qiymatini faqat sotib olish narxi orqali emas, balki uning sifat ko‘rsatkichlari va foydalanish natijadorligi bilan bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Natijada urug‘lik xarid qilish, sarf me’yorlarini belgilash va mavjud resurslardan foydalanish bo‘yicha qarorlarni yanada asosli qabul qilish mumkin.

Allokativ samaradorlikni baholashning iqtisodiy mazmuni mavjud resurslarni ularning narxi va kutilayotgan natijadorligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlashdan iborat. Mazkur koeffitsiyent urug‘likdan foydalanish jarayonida xarajatlar va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatni baholashga xizmat qiladi.

$$AAE_s = \frac{\left(\frac{M_{opt} \times P_{opt}}{G_{opt} \times T_{opt} \times D_{opt}}\right)}{\left(\frac{M_{farm} \times P_{farm}}{G_{farm} \times T_{farm} \times D_{farm}}\right)} \times \frac{Y_{farm}}{Y_{opt}}$$

Manba: Muallif ishlanmasi.

bunda AAE_s - sabzavot ekinlari urug‘idan foydalanish allokativ samaradorlik koeffitsiyenti; M - 1 gektarga sarflangan urug‘ miqdori, kg; P - 1 kg urug‘ning narxi, so‘m; G - urug‘ning unuvchanlik koeffitsiyenti; T - urug‘ning tozalik koeffitsiyenti; D - urug‘ning dalada chiqish koeffitsiyenti; Y - urug‘dan foydalanish natijasida olingan mahsulot yoki urug‘lik hosili; opt - maqbul variant; farm - xo‘jalikdagi haqiqiy variant.

Bunda koeffitsiyentni hisoblash metodikasi, uning tarkibiy ko‘rsatkichlari va tabaqalashtirish chegaralari aniq belgilanishi lozim. Koeffitsiyent qiymatining yuqoriligi samaradorlikning yuqoriligini anglatishi uchun hisoblash formulasi va baholash mezonlari o‘zaro muvofiq bo‘lishi kerak.

Mazkur uslubning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- urug‘likning xarid narxi bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish;
- unuvchanligi va tozalik darajasi turlicha bo‘lgan urug‘lik materiallarini iqtisodiy jihatdan taqqoslash;
- urug‘sarfini maqbullashtirish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash;
- urug‘lik xarid qilishda iqtisodiy jihatdan asoslangan qarorlarni qabul qilish;
- urug‘lik ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini oshirish.

Shunday qilib, urug‘dan foydalanish allokativ samaradorlik koeffitsiyenti urug‘lik sifatini iqtisodiy baholash va urug‘lik resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaralishi mumkin.

2. Urug‘chilikni iqtisodiy rag‘batlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishda urug‘lik ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlash, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Urug‘chilikning ochiq va himoyalangan maydonlarda tashkil etilishi, sifatli urug‘lik yetishtirish uchun zarur infratuzilmaning mavjudligi hamda yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish xarajatlari ushbu jarayonning iqtisodiy natijalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, ochiq va himoyalangan maydonlarda sabzavot urug‘larini yetishtirish hamda ulardan foydalanishni sifat ko‘rsatkichlari asosida tabaqali rag‘batlantirish, koinvestitsiya uchun qulay muhit yaratish, asosiy va takroriy ekinlar uchun sug‘urta mukofotining bir qismini subsidiyalash, yangi va noan’anaviy navlar uchun kafolatlangan birinchi xaridor mexanizmlarini joriy etish orqali qo‘llab-quvvatlash takliflari asoslangan.

Mazkur mexanizmlarning iqtisodiy mazmuni quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, urug‘lik sifatiga asoslangan tabaqali rag‘batlantirish. Urug‘likni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashda uning unuvchanligi, tozalik darajasi, navdorligi va belgilangan sifat talablariga muvofiqligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunda rag‘batlantirish mezonlari laboratoriya tekshiruvlari va tegishli sifat hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak. Ushbu yondashuv ishlab chiqaruvchilarni yuqori sifatli urug‘lik yetishtirishga undash bilan birga, ajratiladigan mablag‘larning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, koinvestitsiya mexanizmlarini rivojlantirish. Urug‘chilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va xususiy investorlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali urug‘likni yetishtirish, qayta ishlash, saralash, qadoqlash va saqlash infratuzilmasiga mablag‘ jalb qilish mumkin. Bunday hamkorlikda tomonlarning moliyaviy ishtiroki, tavakkalchiliklari, mulkiy huquqlari va kutilayotgan natijalari aniq belgilanishi lozim.

Uchinchidan, sug‘urta mukofotining bir qismini subsidiyalash. Iqlim o‘zgarishi, suv ta’minotidagi beqarorlik va boshqa ishlab chiqarish tavakkalchiliklari urug‘chilik faoliyatining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Asosiy va takroriy ekinlar bo‘yicha sug‘urta mukofotining bir qismini subsidiyalash mexanizmi ishlab chiqaruvchilarning sug‘urtadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda subsidiya miqdori, sug‘urta hodisalari va to‘lov shartlari aniq mezonlar asosida belgilanishi zarur.

To‘rtinchidan, yangi va noan’anaviy navlar uchun kafolatlangan birinchi xaridor mexanizmi. Yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish jarayonida urug‘lik yetishtiruvchilar sotish bozori va talab hajmi bilan bog‘liq noaniqliklarga

duch kelishi mumkin. Oldindan belgilangan sifat, miqdor va narx shartlari asosida birinchi xaridor bilan shartnoma tuzish ushbu tavakkalchilikni kamaytirishi mumkin. Mazkur mexanizm yangi navlarni sinovdan o‘tkazish, urug‘lik ishlab chiqarishni kengaytirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga ko‘maklashadi.

Beshinchidan, ochiq va himoyalangan maydonlarda urug‘chilikni rivojlantirish. Ochiq maydonlarda urug‘lik yetishtirish bilan bir qatorda, tegishli ekinlar va navlar uchun himoyalangan maydonlardan foydalanish urug‘lik ishlab chiqarish sharoitlarini boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq himoyalangan maydonlarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qo‘shimcha kapital va ekspluatatsiya xarajatlarini ham hisobga olgan holda baholanishi kerak.

Mazkur mexanizmlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish urug‘lik sifatini oshirish, investitsion faollikni kuchaytirish va urug‘chilik faoliyatidagi moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishga yordam beradi.

3. Urug‘chilik tizimida samarali boshqaruvni shakllantirish.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishda ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar, sifat nazorati, urug‘likni ko‘paytirish va bozorga yetkazib berish jarayonlarini muvofiqlashtirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu vazifalar turli tashkilotlar o‘rtasida tarqoq holda amalga oshirilganda boshqaruvdagi takrorlanishlar, vakolatlarning chegaralanmaganligi va idoralararo hamkorlikning yetarli emasligi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va urug‘chilik tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida amaldagi bir nechta markaz negizida yagona Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish agentligini tashkil etish taklifi asoslangan.

Taklif etilayotgan institutsional yondashuvning asosiy maqsadi urug‘chilikka oid o‘zaro bog‘liq vazifalarni integratsiyalash, boshqaruvdagi takrorlanishlarni kamaytirish va urug‘lik ishlab chiqarishning barcha bosqichlari bo‘yicha muvofiqlashtirishni kuchaytirishdan iborat.

Yagona agentlik faoliyatini tashkil etishda quyidagi vazifalarni nazarda tutish maqsadga muvofiq:

- urug‘chilikni rivojlantirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni muvofiqlashtirish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari, urug‘lik yetishtiruvchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- urug‘likka bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish hamda istiqbolli ehtiyojlarni baholash;
- urug‘lik ishlab chiqarish, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash;
- urug‘chilik sohasiga oid ma’lumotlarni birlashtirish va raqamli monitoringni rivojlantirish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarining natijadorligini baholash.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Bunda agentlikni tashkil etish amaldagi tashkilotlarning vazifalari, vakolatlari, moliyalashtirish manbalari va funksional yuklamasini chuqur tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, yangi tuzilma ortiqcha ma'muriy xarajatlarni keltirib chiqarmasligi, balki boshqaruv samaradorligini oshirishi bilan asoslanishi zarur.

Mazkur taklifning kutilayotgan iqtisodiy ahamiyati boshqaruvdagi takrorlanuvchi vazifalarni qisqartirish, ma'lumot almashinuvini yaxshilash, urug'chilikka oid qarorlarni muvofiqlashtirish va davlat resurslaridan foydalanish natijadorligini oshirish bilan belgilanadi.

4. Iqlim o'zgarishi sharoitida sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishini prognozlash.

Iqlim o'zgarishi sabzavot yetishtirish tizimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Harorat rejimining o'zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va ishlab chiqarish xarajatlaridagi o'zgarishlar sabzavot ekinlarining hosildorligi hamda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qilishi mumkin.

Bunday sharoitda sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini faqat oldingi yillardagi o'sish sur'atlariga asoslanib baholash yetarli emas. Prognozlash jarayonida urug'lik narxi, import urug'lar bilan ta'minlanganlik, urug'chilik maydonlari va boshqa muhim omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olish talab etiladi.

Shu maqsadda iqlim o'zgarishlari sharoitida urug' bahosi, import urug'lar ta'minoti va urug'chilik maydoni kabi bir nechta omillarning o'zaro ta'siriga asoslangan holda mamlakatimizda sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Mazkur yondashuvda ishlab chiqarish hajmi natijaviy ko'rsatkich sifatida qaralib, unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash va ularning kelgusi davr qiymatlarini baholash nazarda tutiladi. Bunda trend modellari orqali omillarning prognoz qiymatlari aniqlanib, keyinchalik ushbu qiymatlar ko'p omilli regressiya tenglamasiga kiritilishi mumkin.

Prognozlash jarayonining umumiy mantiqi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tarixiy ma'lumotlarni shakllantirish.

2. Natijaviy ko'rsatkich bilan omillar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni tahlil qilish.

3. Muhim omillar uchun mos trend modellarini tanlash va ularning kelgusi davr qiymatlarini hisoblash.

4. Omillarning prognoz qiymatlarini ko'p omilli regressiya modeliga kiritish orqali sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini aniqlash.

5. Olingan natijalarni statistik ishonchlilik, model xatolari va iqtisodiy mantiq nuqtayi nazaridan baholash.

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, ishlab chiqarish hajmining prognozi birgina ko'rsatkichning oldingi dinamikasiga emas, balki urug'lik

ta’minoti va ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi.

Biroq urug‘ narxi, import urug‘lar hajmi va urug‘chilik maydoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda omillarning o‘zaro ta’siri, ehtimoliy ko‘p omilli bog‘liqlik va ma’lumotlar yetarliligi hisobga olinishi lozim. Prognoz natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun modelning statistik ko‘rsatkichlari va prognoz xatolari ham baholanishi zarur.

Ushbu prognozlash yondashuvi urug‘lik resurslariga bo‘lgan ehtiyojni oldindan aniqlash, ishlab chiqarish rejalari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini asoslash, shuningdek, urug‘chilik maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

5. Taklif etilgan ilmiy natijalarning o‘zaro bog‘liqligi va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot doirasida asoslangan to‘rtta ilmiy natija sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Birinchi natija urug‘lik materiallaridan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, urug‘ sarfi, narxi, unuvchanligi va tozalik darajasini o‘zaro bog‘liq holda hisobga olish imkonini beradi. Mazkur taklif asosida sabzavotchlik xo‘jalilkarida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va uni baholash imkoniyatlari 15 foizgacha oshirish imkonini bergan.

Ikkinchi natija urug‘lik yetishtirishni iqtisodiy rag‘batlantirishga qaratilgan. Sifatga asoslangan tabaqali qo‘llab-quvvatlash, koinvestitsiya, sug‘urta mukofotining bir qismini subsidiyalash va yangi navlar uchun kafolatlangan birinchi xaridor mexanizmlari urug‘lik ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Mazkur taklif asosida sabazvotchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy salohiyati, moliviy imkoniyatlari sog‘lomlashishiga va ishlab chiqrish ko‘rsatkichlari 15-20 foizgacha ortishiga erishilgan.

Uchinchi natija urug‘chilik tizimida boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, yagona agentlikni tashkil etish orqali vazifalarni integratsiyalash, idoralararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish va boshqaruvdagi takrorlanishlarni kamaytirish nazarda tutiladi. Tashkiliy o‘zgarishlar natijasida boshqaruv xarajatlari optimallashib, xo‘jaliklarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, xal qilish intensivligi ortishiga erishish mumkinligi asoslangan.

To‘rtinchi natija esa urug‘lik ta’minoti va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni prognozlash orqali sohaning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Mazkur tavsiyalar asosida istiqbolda import urug‘larni rejalashtirish, ularni joylashtirish va mahalliylashtirish imkoniyatlarini baholash samaradorligi ortishiga erishilgan.

Ushbu natijalarni birgalikda qo‘llash urug‘likning sifat va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholashdan boshlab, uni ishlab chiqarish, moliyalashtirish, boshqarish va kelgusi ehtiyojlarni prognozlashgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona tizimda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

1-jadval

Sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Ilmiy yechim	Kutilayotgan natija
Urug‘lik samaradorligini baholash	Allokativ samaradorlik koeffitsiyenti va tabaqalashtirish shkalasi	Urug‘lik resurslaridan oqilona foydalanish
Iqtisodiy rag‘batlantirish	Sifatga asoslangan qo‘llab-quvvatlash, koinvestitsiya, sug‘urta subsidiyasi va birinchi xaridor mexanizmi	Investitsion faollik va ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligini oshirish
Boshqaruv tizimini takomillashtirish	Yagona Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish agentligini tashkil etish taklifi	Vazifalarni muvofiqlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish
Prognozlash	Trend modellarini ko‘p omilli regressiya bilan uyg‘unlashtirish	Sabzavot ishlab chiqarish hajmi va urug‘lik ehtiyojini oldindan baholash

Manba: muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan yo‘nalishlar urug‘chilik tizimining alohida bosqichlarini emas, balki uning o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, tashkiliy va prognozlash mexanizmlarini ifodalaydi. Ularning amaliy natijadorligi tegishli metodikalar, normativ mexanizmlar va hisob-kitoblar bilan tasdiqlanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishda urug‘lik sifatini iqtisodiy baholash, ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va ishlab chiqarish hajmini prognozlashni o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, sabzavot urug‘idan foydalanish allokativ samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash uslubi urug‘sarfi va narxini urug‘lik materialining unuvchanligi hamda tozalik darajasi bilan bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Koeffitsiyent qiymatlarini samaradorlik darajalari bo‘yicha tabaqalashtirish urug‘likdan foydalanish natijadorligini taqqoslash va iqtisodiy qarorlarni asoslash uchun metodik asos yaratadi.

Ikkinchidan, urug‘lik yetishtirishni sifat ko‘rsatkichlari asosida tabaqali rag‘batlantirish, koinvestitsiya uchun qulay muhit yaratish, asosiy va takroriy ekinlar uchun sug‘urta mukofotining bir qismini subsidiyalash hamda yangi va noan’anaviy navlar uchun kafolatlangan birinchi xaridor mexanizmlarini joriy etish urug‘chilik faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlardir.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish agentligini tashkil etish taklifi urug‘chilik tizimida takrorlanuvchi va tarqoq vazifalarni integratsiyalash, tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu taklifni amalga oshirishda institutsional vakolatlar va moliyaviy samaradorlikni oldindan baholash muhim hisoblanadi.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishi sharoitida urug‘ narxi, import urug‘lar ta’minoti va urug‘chilik maydoni kabi omillarni hisobga olgan holda sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini prognozlash kelgusidagi ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash uchun ilmiy asos yaratadi. Trend modellari va ko‘p omilli regressiya yondashuvini uyg‘unlashtirish prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantirishda qo‘llanishi mumkin.

Umuman olganda, sabzavot ekinlari urug‘chiligini rivojlantirishda sifat, iqtisodiy rag‘batlantirish, samarali boshqaruv va ilmiy prognozlash mexanizmlarini yagona tizim sifatida takomillashtirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvlar amaliyotda tegishli tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar bilan ta’minlanganda urug‘lik resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish barqarorligini mustahkamlash va milliy urug‘chilik tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhiddinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘llari: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2010.
2. Dilmurodov O.G. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini sotishning logistik zanjirini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2010.
3. Murodov Sh.M. Meva-sabzavot mahsulotlarini sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2020.
4. Eshmatov S.K. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish yo‘nalishlari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2021.
5. Achilov M.U. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ini modernizatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish: dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 16-fevral, O‘RQ-521-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi 51-son qarori. Urug‘chilik va ko‘chat yetishtirishni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjat.
8. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Sabzavot urug‘chiligi, urug‘lik sifati va qishloq xo‘jaligi tizimlarini rivojlantirishga oid materiallar. https://www.fao.org/
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi statistikasi va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. https://stat.uz/
10. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy